

## OT OLAMINING SIRLI SAHNASI



*Zilola Toshpo 'latova Dilmurodovna*

*O'zbekistonda Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiya universiteti PR va menejment fakultetining Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar yo'nalishi 2-kurs talabasi*

*Abror Ergashev Otxona asoschisi*

*PR MATNLAR KOPIRAYTING faninng mutaxasisi Gulyamova Muxtabar*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ot olamining sirli sahnasi mavzusida talabalarning ijodkorlik va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan kreativ dars loyihasi yoritilgan. Dars davomida "Mediarileyshnz" fani nazariyasi amaliyotda sinab ko'rildi. Talabalar Osiyo ot sporti federatsiyasi otchopar hududida eksklyuziv press-tur tashkil etib, jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha o'z tajribalarini boyitdi.

**Kalit so'zlar:** Ot olami, press-tur, Mediarileyshnz, kreativ dars, talaba tajribasi, ot sporti, axborot xizmati.

Otlar insoniyat tarixining ajralmas qismi bo'lib, ularning estetik va madaniy qiymati boy tarixga ega. Bugungi kunda ot sporti nafaqat sport, balki turizm va madaniy merosni ommalashtirishning muhim yo'nalishi sifatida e'tirof etilmoqda. Shu kontekstdan kelib chiqib, Mediarileyshnz fanidan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash maqsadida kreativ dars tashkil etildi. Ushbu maqola talabalarning ijodiy yondashuvi va tajribasini yoritishga qaratilgan.

### От оламинаинг сирли саҳнаси

Mediarileyshnz fani doirasida talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmaga aylantirish maqsadida Osiyo ot sporti federatsiyasi otchopar hududida maxsus kreativ dars tashkil etildi. Ushbu dars doirasida "От оламинаинг сирли саҳнаси" mavzusida jurnalistlar uchun eksklyuziv press-tur uyushtirildi. Bu tadbir Axborot

xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar yo‘nalishi 2-kurs talabalari uchun o‘quv jarayonidagi muhim voqeа bo‘ldi.

Press-tur o‘zida bir qancha maqsadlarni mujassam etdi:

- Talabalarni press-tur tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari bilan yaqindan tanishtirish;
- Axborot xizmatining asosiy funksiyalarini tushunib yetish va amaliyotda qo‘llash;
- Jamoatchilik bilan aloqalar sohasidagi jarayonlarni jonli namoyish etish orqali talabalarning professional malakasini oshirish.



Tadbir davomida talabalarga quyidagi vazifalar yuklatildi:

Press-turning asosiy rejasi va mavzusini ishlab chiqish.

Tadbir ishtirokchilari uchun press-reliz va boshqa axborot materiallarini tayyorlash.

Jur nalistlar va tashkilot rasmiylari o‘rtasidagi muloqot jarayonlarini modellashtirish.

Tashkilot mutasaddilari bilan intervyu o‘tkazish va asosiy fikrlarni aniq bayon etish.

Press-tur tashkil etilishi Fan doirasida ilk bor o‘tkazilgan press-turda har bir talaba o‘ziga belgilangan rolga ega bo‘ldi. Ba’zi talabalar tashkilot rasmiylari obrazida journalistlarni kutib olish, ularga savollarga javob berish va press-relizlarni taqdim etish bilan shug‘ullandi. Boshqa talabalar esa journalist sifatida tadbirni kuzatish, savollar berish va turli formatlarda material tayyorlashga mas‘ul bo‘lishdi. Bu jarayon talabalarni turli vaziyatlarga tezkor moslashishga va professional yondashuvni qo‘llashga undadi.

Otchopar hududidagi taassurotlar Press-tur davomida talabalarga otchopar hududi va ot sporti madaniyati bilan yaqindan tanishish imkoniyati berildi. Bu

hududdagi mashg‘ulotlar jarayonini kuzatish orqali talabalar sport jurnalistikasi uchun kerakli bilim va tajriba to‘plashdi. Ot sportining tarixi, undagi qoidalar va tashkilotchilik jihatlari haqida bat afsil ma‘lumot olishdi.

Ijodiy yondashuv va jamoaviy ish Bu dars talabalarning ijodkorligini oshirishga ham katta hissa qo‘shti. Har bir talaba o‘z roliga ijodiy yondashib, yangi g‘oyalar bilan chiqdi. Jamoaviy ish esa talabalar o‘rtasida bir-birini qo‘llab-quvvatlash va muvofiqlashtirish ko‘nikmalarini mustahkamladi. Bu jarayon ularga kelgusida jamoatchilik bilan aloqalar sohasida muvaffaqiyatli faoliyat olib borish uchun muhim zamin yaratdi.

Tadbirning ahamiyati “Ot olamining sirli sahnasi” mavzusidagi ushbu tadbir nafaqat Mediarileyshnz fani doirasidagi amaliy mashg‘ulot, balki talabalarning kasbiy rivojlanishi uchun muhim bir qadam bo‘ldi.

Ularning nazariy bilimlari amaliyotda mustahkamlanib, o‘zlarini haqiqiy kasbiy muhitda sinab ko‘rish imkonini berdi. Tadbir yakunida talabalar tomonidan o‘zlariga yuklatilgan vazifalar muvaffaqiyatli bajarildi va ular tomonidan tayyorlangan materiallar yuqori baholandi.

Mazkur press-tur talabalarga o‘zlarining keljakdagi kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadigan tajriba va ilhom bag‘ishladi. “Ot olamining sirli sahnasi” nafaqat talabalar uchun, balki ushbu jarayonni kuzatgan barcha ishtirokchilar uchun ham yodda qolarli tadbirlardan biriga aylandi.

Press-turda talabalarning faol ishtiroki ularning kommunikatsion va ijodiy qobiliyatlarini yanada oshirishga xizmat qildi. Biroq, tadbir davomida ayrim kamchiliklar, jumladan, vaqt ni samarali boshqarish va kutilmagan muammolarga tezkor yechim topish masalalarida tajriba yetishmasligi kuzatildi. Kelgusida bunday tadbirlarni tashkil etishda rejalshtirish jarayoniga ko‘proq e‘tibor qaratish lozim.

## Xulosa



Mazkur tadbir “Mediarileyshnz” fanining nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq qilish imkoniyatini yaratdi. Talabalar nafaqat o‘quv jarayonida, balki kelajakdag‘i kasbiy faoliyatlarida muhim ahamiyatga ega ko‘nikmalarни egallashdi. Kelgusida bunday darslarni muntazam ravishda o‘tkazish, shuningdek, boshqa sport va madaniy obyektlar bilan hamkorlik qilishni taklif etamiz.

### Adabiyotlar

1. “Ot sporti nazariyasи va uslubiyati” fanidan ma’ruzalar matnlari. Chirchiq – 2021.
2. Конный спорт: программа для специализированных учебноспортивных учреждений и училищ олимпийского резерва / сост.: П. М. Прилуцкий [и др.]. – Минск: РУМЦФВН, 2009. – 95 с.
3. Миклем, У. Верховая езда. Полное руководство / Уильям Миклем: пер. с англ. С.Л. Баскиной. – М.: «ACT» - «Астрель», 2005. – 400с.
4. Кремер, М. Как добиться высоких результатов. 8 пунктов программы по подготовке лошади. – М.: Аквариум, 2007–288 с.
5. Волынский, С.М. Тренировка и выездка лошадей. – М.: ООО «Издательство ACT»; Донецк; «Сталкер», 2004. – 285 с.
6. Штайнкрауз В. Верховая езда и преодоление препятствий. – М.: «ОО Аквариум Бук», 2004. 6. Ливанова, Т.К., Ливанова, М.А. Все о лошади. – М.: изд. «ACTПресс», 2012.